O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI ANGREN SHAHAR HOKIMI

Q A R O R I

2022 - yil 14 - noyabr 381-10-148-Q/22 Angren shahar hokimligi

Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 10, 12-bandlari, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi Angren shahar filali (Sh.Baymuradov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qaror “Angren haqiqati” va “Angrenskaya pravda” gazetalarida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Erkaboev zimmasiga yuklatilsin.

Angren shahar hokimi v.b **A.A.Rayimov**

Angren shahar hokimining
2022 yil 14 noyabrdagi
381-10-148-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

1.Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2.Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil
20 yanvardagi 18-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat -uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4.Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizasiya hujjatlari Kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar filiali arxivida saqlanadi.

5.Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari Kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6.Arizalar Kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reyestriga qayd qilinadi.

7.Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun Kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar filialiga telekommunikasiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varog‘iga Kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar filiali rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun

ichida huquq egasiga topshiriladi.